

Pragmalingvistikada Kommunikativlikning O'ri

Ashurova Sevara¹ To'xtayeva Qoysin Davlatovna²

Annotatsiya: Mazkur maqolada pragmalingvistikada kommunikativlik, uning ifoda tuzilishining illokutiv maqsadi, kommunikativ vaziyat tuzilishiga bog'liqlik, muloqotning turli ko'rinishlari va turlariga oid qoida - usullarini o'rganish, tamoyillarini shakllantirish va ishlab chiqish haqidagi fikrlar yoritildi.

Kalit so'zlar: pragmatika, kommunikativlik, illokutiv maqsad, psixologik ta'sir, kirishimlilik qobiliyati.

Aytib o'tilganidek, har xil nutqiy ifodalarning turli matnlarda namoyon bo'lishini, muloqotning lingvistik tuzilishini, muloqotning har xil ko'rinishlari va turlariga oid qoida usullarini o'rganish, tamoyillarini shakllantirish va ishlab chiqish hamda kommunikativ ifoda tuzilishining ya'ni nutqiy aktning illokutiv maqsadi kommunikativ vaziyat tuzilishiga bog'liqligini aniqlash haqidagi mulohazalarning kommunikativ lingvistikada qanchalar muhim o'rin tutishi haqida ilmiy tadqiq qilindi.

Agarda ilmiy jihatdan har bir maqsadga birma-bir e'tibor beradigan bo'lsak, eng avvalo "Pragmatika" atamasi bizni o'ziga jalb qiladigan va ma'lumot bilishga undaydigan sohadir. Demak, "Pragmatika"-yunoncha, "ish", "harakat" kabi fikrlarni anglatib, nutqda til birliklarining funksionalligini o'rganuvchi semiotika va tilshunoslikning yo'nalishidir. Bu soha Sokratdan oldingi davrlarda ham qo'llanilgan va keyinchalik uni J.Lokk, E.Kant singari faylasuflar Aristoteldan o'zlashtirganlar. Shu yo'sinda, "pragmatika" oqimi vujudga keldi va yillar o'tib fan sohasi sifatida zamonaviy tilshunoslik yo'nalishiga aylanib bordi. Bugungi kunda mazkur soha yangilanmoqda va tadqiqotlar olib borilmoqda.

Pragmalingvistikaning asosiy maqsadlaridan biri lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishi, ya'ni tilni axborot kommunikatsiya vositasi sifatida o'rganishdir. Pragmatika va pragmalingvistika tilshunoslikka tutash fan sifatida qaraladi. Ikkala fan ham kesishish sohasiga ega, ya'ni muloqotda tilning ishlashi bilan bog'liq jarayonlarni tadqiqi qiladi. Shuningdek, tilshunoslik aloqaning til tizimi bilan bog'liqligini pragmalingvistika esa muloqotning jamiyat tarkibi, uning holatlar va vaziyatlarga moslashishini o'rganadi. Masalan, pragmatikani tilshunoslik va sotsiologiya o'rtasida bog'lovchi fan sifatida belgilash mumkin. Bu nuqtai nazar, xususan, daniyalik olim J.Meyning asarlarida taqdim etilgan bo'lib, u pragmatika predmetiga quyidagicha ta'rif beradi: "Pragmatika ma'lum bir jamoa sharoitiga qarab kishilar o'rtasidagi muloqotda tildan foydalanishni o'rganadi"[1]. I.Susov, shuningdek pragmatika mustaqil fan maqomiga ega deb hisoblaydi va "...hozirgi bosqichda men o'zim uchun pragmatikaning tilshunoslikka chambarchas bog'liq bo'lgan mustaqil fanlararo bilim sohasi sifatida qarash huquqini istisno qilmayman"[2]. Darhaqiqat nutq insonni boshqalar bilan birgalikda qandaydir maqsad asosida muloqotga yo'naltiradi. Hayotiy ehtiyojlarimizni to'ldirish, boshqa tomonlardan yordamchi kuch olish uchun ham biz kommunikatsiyaga ya'ni aloqaga kirishishga majbur bo'lamiz bu esa hayotdagi barcha vaziyatlardan biroz uddaburonlik va insonlar xarakteriga mos ravishda chiroyli muomala madaniyati bilan so'zlashamiz va jamoaviy, individual kommunikatsiya qilamiz.

Dastavval eslatib o'tganimizdek, mazkur maqolada pragma lingvistikada kommunikativlik va uning ifoda tuzilishining illokutiv aktlarini ham bilmoq joiz deb o'yladik. Aynan bu sohaning pragmatikada

¹ Navoiy davlat pedagogika instituti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi

² Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent



va lingvistikada qanchalar muhimligi qay tilda soʻzlashdan qatʼiy nazar nutqni ravon, diqqatni tortadigan, taʼsirli, jozibali va har tomonlama mukammal shaklga keltiradi. Maʼlum bir fikrni soʻzlovchi tinglovchiga ifodalar ekan, nutq ravon, aniq va tushunarli boʻlishi tinglovchi uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki tinglovchi sizni anglab, tushunib maʼlum bir mazmundagi javob qaytarishi hattoki, baʼzan tanqidiy fikrlar va mulohazalar ham bildirilishi zarurdir. S. Azimovning fikriga koʻra, nutqiy akt tushunchasining mohiyatiga koʻra soʻzlovchi nutqida kommunikativ niyat aks etadi. Ostin esa nutq aktlarini lokutiv, illokutiv, perlokutiv aktlarga ajratganligini Arso Setyaji qayd etgan. Ushbu aktlardan “illokutiv akt” tushunchasini pragmalingsvistikada inson tomonidan nutqiy jarayonda va nutqiy faoliyat vositasida bajariladigan harakat sifatida Sh. Safarov taʼkidlab oʻtganlar.

Kommunikatsiya-bu oʻzaro hamfikrlikka boshlovchi, ikki tomonlama axborot almashinuv jarayonidir. Axborot esa bu bilim demakdir, bunday bir - birini tasdiqlovchi fikrlar esa biz muloqotga kirishmay turib hech qanday maʼlumotga ega boʻla olmasligimizni isbotlaydi. Muloqot insonlar oʻrtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan maʼlumotlar almashinuvi. Muloqot bizni fikr almashish, uni tahlil qilish va yangi axborotlardan boxabar boʻlishimizga zamin yaratadi va kommunikatsiya buni osonlashtiradi. Biz bunday jarayonlarni faqatgina nutq faoliyati, emotsiyalar, yuz mimikasi orqali fikrni tinglovchiga tezroq yoʻllay olamiz. Nutq faoliyati odam tomonidan ijtimoiy – tarixiy tajribani oʻzlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya oʻrnatish, oʻz harakatlarini rejalashtirish maqsadida muloqot vositasi boʻlmish tildan foydalanish jarayonidir.

Kommunikatsiya aslida ikki va undan ortiq shaxslarning muloqoti natijasida yuzaga keladi. Kommunikatsiyani tabiiy ravishda qandaydir tadbirlarda, suhbat jarayonida, odamlar guruhida asosan biror maqsad oldinga qoʻyilgan asnoda fikrlar almashinish va bilimga ega boʻlish tag zamiridagi vosita hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy jadallashgan hayotimizda esa kommunikatsiya ham jonli ham online elektronika vositalari orqali tez va oson yoʻlga qoʻyiladi. Baʼzan buni hayotdagi baʼzi bir holatlar bizni hayotdan uzilib qolmasligimiz uchun ham juda katta qulayliklarni yaratadi. Misol tariqasida, birgina karantin davrini nazarda tutadigan boʻlsak, bunda kommunikatsiya faqatgina online holda davom etdi, kasalning holidan xabar olish, tugallanmay qolgan oʻquv yillari, saylov jarayonlari, online darslar; bularning barchasini biz qandaydir darajada muomalaga kirisha olmaganimiz; tashqi yuzma-yuz muloqotdan bir muddat deyarli uzilib qoldik, bular esa ehtiyojga borib taqaladi.

Kommunikatsiya esa tirik va oʻlik tabiatdagi tizimlar oʻrtasida axborot almashinuvini anglatadi. Kommunikatsiya bolaga kichkinaligidan bolalar bogʻchasida oʻrgatiladi, negaki bola bilan individual shugʻullanganda unga oʻrgatilgan bilim va koʻnikmalar boshqa yoshi kattalar yoki oʻzi kabi tengdoshlari bilan soʻzlashganda, muloqotga kirishganda savolga toʻgʻri yondashish, aqlli javob berish kabi holatlarda yaqqol koʻzga tashlanadi. Ulgʻaygani sari esa undagi koʻnikmalar tabiat, atrof muhitdagi oʻzgarishlar muloqotga boʻlgan qiziqishni oshiradi va hattoki, baʼzan ularni soʻzlashuv jarayonidan toʻxtatish ham mushkuldir. Shuning uchun ham bolalarga sheʼrlar yodlatilganda yoki ertaklar aytib berilganda, voqealar hamda jarayon ishtirokchilarini ular harakati bilan ham toʻliq ifodalashga harakat qiladilar, vaziyatlarni esa mimikalar orqali tez va oson tushuntira oladilar. Demak kommunikatsiya faqatgina oddiygina soʻzlashuv hisoblanmaydi. Pragmalingsvistikada esa kommunikativlik orqali biz nutqiy jarayonlarni toʻlaqonli tinglovchiga oson va tushunarli darajada yetkazishimizga zamin yaratamiz. Takidlaganimizdek, muloqot orqali aloqaga kirishyapmiz, ammo sovuqqon uslubda yaʼni quruq soʻzlardan boshqa hech narsa yoʻq. Ammo bunday vaziyatni yumshatishda visual kommunikatsiyaning ham oʻrni katta deb hisoblaymiz.

Vizual muloqot - bu koʻzlar orqali aloqa va bu usul bizni tinglovchining eʼtiborini soʻzlovchiga jalb qiladigan eng muhim omil hisoblanadi va tananing yaʼni gavdaning soʻzlarga va nigohlarga mutanosibliği nutq jarayoni davomida suhbatdoshga fikrni aniq va ravshan yetkazishda muhim rol oʻynaydi. Shuning uchun ham muloqot oʻzaro taʼsirning yagona yoʻlini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat boʻlgan aloqalarni oʻrnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni hisoblanadi. Insonlar bilan kommunikatsiya jarayonida eng muhim omillardan biri – nutqdir. Nutq-inson psixologiyasining eng muhim vazifalaridan biri boʻlib, boshqa bir jarayonlarni boshqarib, oʻzaro bir - biriga bogʻlab turadi.



Muloqot jarayonlarida bir nechta muhim omillar bizni tinglovchiga nisbatan o'zimizga jalb qiladigan muhit yaratadi. Masalan, ohang, emotsional ifodalanganlik bular bir xil iboraga ma'no berishga qodir. Suhbatning mimikasi, gavda holati, nigohi ibora ma'nosini kuchaytirishi, to'ldirishi yoki rad etishi mumkin. Imo-ishoralar muloqot vositasi sifatida umumiy qabul qilingan, ya'ni, belgilangan ma'noga ega bo'lishi yoki ekspressiv, ya'ni nutqning ifodaliligini yanada oshiradi. Kommunikatsiya ya'ni muloqot qandaydir maqsad asosida yuzaga keladigan jarayon hisoblanadi. Hayotimiz davomida turfa xil ehtiyojlarga duch kelamiz masalan, tobgingiz yo'q holatingizdagi o'zgarishlarishlarni qay holda lingvistik mahorat bilan aniq tushuntirishingiz esa sizga yaxshi tomonga xizmat qiladi. Yoki bo'lmasa juda ham emotsional yomon ahvoldagi insonga faqatgina Shirin so'z, go'zal nutq va chiroyli kommunikatsiya har qanday insonga motivatsiya beradi va olg'a intiladi. Bejizga mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy quyidagi misralarni bitmaganlar:

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,

Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

Ya'ni biz kommunikatsiyaga kirishganda chiroyli nutqimiz o'zgalarni jalb qiladi va lingvistik mahorat muloqotni, shuningdek, insonlar o'rtasidagi fikrlash saviyamizni hamda jamiyatdagi o'rnimizni ham ko'rsatadi. Quyidagi ilk ilmiy qarashlarimiz natijasida pragma lingvistikada kommunikativlikning qanchalar muhimligi va uning jamiyatdagi roli haqida shunday xulosaga keldikki, ya'ni bizni shaxslararo visual va online tarzda ham muloqot qilganimizda asosan nutq va til boyligini kichik yoshdan boshlab rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bolalar bog'cha yoshidan boshlab ularga ta'limga tayyorgarlik jarayonlarida tarbiyachining kuchli mutaxassisligi isbotlanadi, maktabdagi ta'limning boshlang'ich sinflarida darslarni individual va kommunikativ faol jarayonlar bilan boyitib bilim olganda ham ularda murakkab, ammo qiziqarli ta'limga hamda uyalchanglikni yengishda ko'nikma hosil bo'ladi. Aynan shu kabi ilmiy jarayonlarda har qanday shaxs muloqotga kirishishiga nima to'sqinlik qilayotgan bo'lsa ular o'z ustida ishlashga, til boyligini oshirish uchun esa ko'p kitob o'qishga harakat qiladi hamda dunyoqarashi ham kengayadi.

Ushbu ilk maqolamiz pragmalingvistikada muloqotning lingvistik tuzilishini o'rganish hamda uni kommunikatsiyada hayotga tadbiiq qilish, muloqot jarayonida inson nutqini lingvistik mahoratini namoyish qiluvchi omillarni qo'llagan holda uni jarayonga tadbiiq qilish, so'zlovchi va ifodalanayotgan fikrlar mazmunini aks ettiruvchi birliklar hamda pragmatik kommunikativ bog'liqlikni shakllantiruvchi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitildi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mosavi Mangah. ``Translation studies`` Application of corpora in translation Article.Tayebeh Shohe Kord University. 2006
2. A.Pardayev . Yordamchi turkumlarning substansial va pragmatik xususiyatlari.-Toshkent. 2013.
3. E. Kotorova. Lingvisticheskiy jurnal. 2019, 23 (2), 98-115. Volume 1| ISSUE 1 ISSN 2181-1784 2021
4. E. G'oziyev . Umumiy psixologiya.- T.: `` Universitet``. 2002
5. <http://journals.rudn.ru/linguistics>
6. www.oriens.uz
7. <http://www.researchgate.net/publication/271604433>

